

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanmoqda.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish. Shuningdek, sataroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyohlik agentliklari va boshqalar kiradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 5673,9 mlrd. so'm




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati - 112,5

2019-yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5673,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018-yilga nisbatan o'sish sur'ati 112,5 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarni, tumanlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 50,6 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush Urganch (8,0 %), Hazorasp (6,1 %), Xonqa (5,0 %) va Gurlan (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangibozor tumani (3,2 %), Xiva shahrida (3,2 %) va Xiva tumanida (3,3 %) kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 28,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,8 %), moliyaviy xizmatlar (16,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) bo'yicha qayd etildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar tarkibi
(jami hajmga nisbatan), %



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar – 1,5 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,7 %, Shuningdek ijara xizmatlari - 2,3 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha - 2,4 % uncha yuqori bo'lmagan ulush qayd etildi.

Deyarli barcha tumanlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishi savdo va transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar kabi xizmatlar tarkibidagi ulushining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (366,8 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (283,4 mlrd. so'mga) va transport xizmatlari (165,3 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	5673,9	112,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	302,0	108,7
moliyaviy xizmatlar	953,2	156,4
transport xizmatlari	1 407,2	102,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 342,7	101,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	134,0	112,5
savdo xizmatlari	1 589,9	106,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	172,6	101,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	273,8	115,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	96,2	108,9
ijara xizmatlari	127,3	104,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	198,9	104,8
shaxsiy xizmatlar	178,2	101,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	83,2	100,4
boshqa xizmatlar	157,4	124,5

2019-yil yanvar- dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	5673,9	112,5
Urganch shahri	2870,7	119,0
Xiva shahri	181,6	110,1
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	243,1	104,9
Gurlan	251,8	101,0
Qo'shk o'pir	236,0	113,2
Urganch	453,6	104,3
Hazorasp	347,8	103,6
Xonqa	286,1	111,2
Xiva	187,3	107,8
Shovot	228,3	104,1
Yangiariq	209,1	106,5
Yangibozor	178,5	105,3

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

**2019-yil yanvar- dekabr oylarida
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**




2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018-yilga nisbatan moliyaviy xizmatlar (156,4 %), boshqa xizmatlar (124,5 %) ta'lim sohasidagi xizmatlar (115,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (112,5 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida Urganch shahri (2870,7 mlrd. so'm) etakchilik qilmoqda. 2018-yilga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 119,0 % ni tashkil etdi.


Eng kichik hajm Yangibozor tumanida (178,5 mlrd. so'm), Xiva shahri (181,6 mlrd. so'm) va Xiva tumanida (187,3 mlrd. so'm) kuzatildi.

2018-yilga nisbatan, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (119,0 %) va Qo'shko'pir tumanida (113,2 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar- dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



2019-yil yanvar- dekabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %







Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1589,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 28,0 % ni tashkil etdi.

2018-yilga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 283,4 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar- dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




-  Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
-  Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
-  Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 71,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 22,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,9 % ni egallaydi.

2019-yil yanvar- dekabr oylarida transport xizmatlarining tarkibi, %




Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari - 97,4 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 2,1 %, pochta va qurerlik xizmatlari – 0,5 % ni tashkil etdi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga tasir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 302,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2018-yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 108,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar- dekabr oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %**




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (96,8 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 953,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2018-yilga nisbatan o'sish sur'ati 156,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (90,2 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 70,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 29,2 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar– dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar -100 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari
70,8 %



Yashash bo'yicha xizmatlar
29,2 %


2018 - yil bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi.

2018-yilga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 112,5 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 273,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarining taqqoslanishi



2018-yil bilan taqqoslaganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 74,7 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi 2018-yilga nisbatan 558,4 ming so'mga oshib, 3065,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 110,6 % qayd etildi.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Tumanlar o'rtasida Urganch shahri (20102,9 ming so'm) etakchilik qilmoqda. 2018-yilga nisbatan, aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 117,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Xiva tumanida (1303,5 ming so'm), Shovot tumanlarida (1359,9 ming so'm) va Qo'shko'pir tumanida (1387,4 ming so'm) kuzatildi.

2018-yilga nisbatan, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (117,4 %) va Qo'shko'pir tumani (111,1 %) da qayd etildi.

2019 - yil yanvar- dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: U.Bardiyev